

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar

bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209
Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi	229

Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	247
Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429
Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470

Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626
Городилова Мария Владимировна	Цифровизация в энергетической отрасли: потенциал и инновационные тренды развития, влияние на экономику	635
Abdusalimov Lazizbek Otabek o‘g‘li	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	645
Бобожонов Азимжон Акмал ўғли, Ортиков Нодиржон Хайруллоевич	Нақдсиз ҳисоб-китоблар трансформацияси: ПФ-246-сонли фармоннинг тадбиркорлик муҳитига ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга таъсири (Эмпирик ва институционал таҳлил	653
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li	Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobining nazariy-institutsional asoslari	662
Толмачева Александра Владимировна	Внутренний контроль качества бухгалтерского учёта при аутсорсинговом обслуживании бизнеса в Узбекистане	672
Газиева Нодира Дилмуротовна	Страховой рынок Узбекистана: динамика, структура и потенциал роста проникновения страхования	678
Misirxonov Xabibxon Iskandar o‘g‘li	Sport-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda xorijiy tajriba va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari	686
Xusan Xusainov Baratovich	Aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirishning yo‘llari	695
Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini integral ko‘rsatkich asosida kompleks baholash metodikasi	701

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING YO‘LLARI

Xusan Xusainov Baratovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: yangihayot456x@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1546-3466

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, aholining tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda bank kreditlarining o‘rni va ahamiyati, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Aholi tadbirkorligini rivojlantirishda kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit ajratish mexanizmlarini soddalashtirish, foiz stavkalarining maqbulligini ta’minlash hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *aholi tadbirkorligi, kreditlash, bank kreditlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit resurslari, tadbirkorlik faoliyati, mikrokredit, moliyaviy xizmatlar, kredit mexanizmi, iqtisodiy faollik.*

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КРЕДИТОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Хусан Хусаинов Баратович
Ташкентский международный университет Кимё
независимый исследователь
E-mail: yangihayot456x@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1546-3466

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования системы кредитования предпринимательской деятельности населения. Также анализируются роль и значение банковских кредитов в финансовой поддержке предпринимательской деятельности населения, а также вопросы повышения эффективности использования кредитных ресурсов. Разработаны предложения и рекомендации по расширению возможностей получения кредитов, упрощению механизмов кредитования, обеспечению доступности процентных ставок и повышению доступности финансовых услуг для развития предпринимательства населения.*

Ключевые слова: *предпринимательство населения, кредитование, банковские кредиты, финансовая поддержка, кредитные ресурсы, предпринимательская деятельность, микрокредитование, финансовые услуги, кредитный механизм, экономическая активность.*

WAYS TO IMPROVE LENDING TO THE POPULATION FOR ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES

Khusan Khusainov Baratovich
Kimyo international
university in Tashkent
Independent Researcher
E-mail: yangihayot456x@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1546-3466

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of improving the lending system for entrepreneurial activities undertaken by the population. It analyzes the role and importance of bank loans in providing financial support for entrepreneurship, as well as ways to increase the efficiency of credit resource utilization. The article develops proposals and recommendations aimed at expanding access to credit, simplifying lending mechanisms, ensuring affordable interest rates, and improving access to financial services in order to promote entrepreneurial development among the population.*

Keywords: *population entrepreneurship, lending, bank loans, financial support, credit resources, entrepreneurial activity, microcredit, financial services, lending mechanisms, economic activity.*

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash hamda aholining daromad manbalarini kengaytirish mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy faollikni oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlarda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xususan, kreditlash tizimining samarali tashkil etilishi alohida o‘rin tutadi.

Aholi tadbirkorligini rivojlantirishda bank kreditlari muhim moliyaviy vosita bo‘lib, ular fuqarolarning o‘z biznes faoliyatini boshlashi, mavjud tadbirkorlik subyektlarini kengaytirishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun zarur moliyaviy mablag‘larni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kredit mablag‘larining qulay shartlarda ajratilishi, foiz stavkalarining maqbulligi, kredit olish jarayonining soddaligi hamda moliyaviy xizmatlarning hududlar kesimida teng taqsimlanishi aholi tadbirkorligining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ham aholi tadbirkorligini rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlariga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish va aholini daromadli mehnat bilan band qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirish, imtiyozli kreditlar ajratish, mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish va tijorat banklari orqali aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, kredit arizalarini ko‘rib chiqish tizimini soddalashtirish, muqobil kredit baholash mexanizmlarini joriy etish, garov ta’minoti bilan bog‘liq talablarni maqbullashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib, moslashuvchan kredit mahsulotlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirish, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi tadbirkorlik faoliyatini kreditlash masalasi zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi bandligini ta’minlash, o‘zini o‘zi band qilishni rag‘batlantirish hamda hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda aholi tadbirkorligini moliyalashtirishning bank-kredit mexanizmlari, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash dasturlari, mikromoliyalashtirish va kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda xorijiy va mahalliy iqyisodichi olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Avstriyalik iqtisodchi olim Shumpeter (1934)ning fikriga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish nazariyasida bank kreditini tadbirkorlik va innovatsiyalarni harakatga keltiruvchi asosiy vosita sifatida baholangan[1]. Uning fikricha, kredit kapitalning yangi kombinatsiyalarini yaratish uchun resurslarni safarbar etish qurolidir[2].

Rus olimi Lavrushin (2016)ning fikricha, kreditlashning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini ta’minlashdan iborat hisoblanadi[3].

M.Yunus (2010)ning fikricha endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi[4].

Aholi tadbirkorlik faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar nafaqat tarixiy davr mutafakkirlari va davlat arboblari merosida, balki mustaqillikdan keyingi davrda faoliyat yuritayotgan mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng qamrovda o‘rganilgan.

B.Berkinov (2018) o‘z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta’kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko‘rishimiz mumkin[5].

I.Alimardonov (2023) ning ilmiy qarashlarida, kichik biznes subyektlarini kreditlashning nazariy va metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan[6].

Xususan, tadqiqotchi olimning fikricha, tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish zarurligini asoslab bergan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi uchta yo‘nalishda shakllangan: birinchidan, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va kredit resurslari bilan ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish; ikkinchidan, davlat dasturlari va imtiyozli kreditlash vositalarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini baholash; uchinchidan, tijorat banklari kreditlarining kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va mahalla darajasidagi tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini aniqlash. Biroq mavjud tadqiqotlarda aynan aholining tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlarning uzoq muddatli dinamikasi, o‘sish sur’atlari, umumiy kreditlash hajmidagi ulushi, hududlar kesimidagi tafovutlari va kreditlash tarkibining o‘zgarishini yagona metodologik yondashuv asosida kompleks baholash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o‘rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo‘nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma’lumot manbalarini o‘rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiy islohotlarning zamonaviy transformatsiya bosqichida aholining tadbirkorlik faolligini oshirish, ularning mustaqil va barqaror daromad manbalarini shakllantirish hamda iqtisodiy faolligini kengaytirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirishda aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda tijorat banklarining kredit resurslarini aholining iqtisodiy tashabbuslari va istiqbolli biznes loyihalariga yo‘naltirish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy xizmatlarning hududiy va raqamli qamrovini oshirish hamda ajratilgan kredit mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda so‘nggi o‘n yillikda aholi tadbirkorligini rivojlantirish, ularning moliyaviy

faolligini rag‘batlantirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Fikrimizcha, aholi tadbirkorligini kreditlash amaliyotini istiqbolda takomillashtirish faqat tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘larini ajratish hajmini oshirish bilan cheklanmasligi, balki ajratilgan kredit mablag‘larining maqsadli va samarali yo‘naltirilishi, ulardan foydalanish natijadorligi hamda kreditlashning aholi daromadlari, yangi ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlik faoliyatining barqarorligiga ta’sirini kompleks baholashni ham nazarda tutishi lozim. Shu sababli, aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirishning quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularni uchta asosiy guruhga – institutsional, innovatsion va moliyaviy islohotlar yo‘nalishlariga ajratish orqali tizimlashtirildi (1-rasm).

Institutsional islohotlar	• eski an’anaviy bank filiallari o‘rniga ixcham onlayn xizmat ko‘rsatadigan bank xizmatlari markazlari soni ko‘paytirish (Smart BXMlar); • tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan yoshlar uchun garovsiz kreditlash tizimini rivojlantirish; • Hokim yordamchilari va tijorat banklari hamkorligida kreditlardan maqsadli foydalanish, monitoring va o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlashni kuchaytirish.
Inovatsion islohotlar	• hududlar ixtisoslashuviga mos ravishda mikrosanoat markazlari tashkil etish orqali “drayver” loyihalarni shakllantirish; • “Ijtimoiy karta” platformasi orqali kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanishni monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish; • raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va monitoring tizimini avtomatlashtirish.
Moliyaviy islohotlar	• “Kredit-keshbek” mexanizmini joriy etish orqali kreditlash samaradorligini rag‘batlantirish; • tijorat banklarining mas’ul xodimlari uchun sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish.

1-rasm. Aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari

Tadqiqot natijalariga asoslanib, xususan 1-rasmda keltirilgan tahliliy xulosalar kelib chiqib, aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor istiqbolli yo‘nalishlarni tizimlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Eski an’anaviy bank filiallari o‘rniga ixcham onlayn xizmat ko‘rsatadigan zamonaviy bank xizmatlari markazlari (Smart BXM)ni joriy etish. Bizning fikrimizcha, aholi tadbirkorligini kreditlash mexanizmini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida an’anaviy bank filiallarining ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich qisqartirib, ularning o‘rniga ixcham, raqamli texnologiyalarga asoslangan va masofaviy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlariga ega zamonaviy Smart BXMlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan yoshlar uchun garovsiz kreditlash tizimini rivojlantirish. Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan yoshlar uchun garovsiz kreditlash tizimini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishini amaliyotga joriy etish natijasida kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi, yoshlarning biznes tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi oshadi hamda startap subyektlarining iqtisodiy faoliyatga kirib kelish barqarorligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda kredit portfeli diversifikatsiyasini kuchaytiradi.

3. Hokim yordamchilari va tijorat banklari hamkorligida kreditlardan maqsadli foydalanish, monitoring va o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlashni kuchaytirish. Hokim yordamchilari va tijorat banklari hamkorligida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanish, ularning monitoringini

kuchaytirish hamda kredit mablag‘larining o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish istiqbolli yo‘nalishi amaliyotga joriy etilishi natijasida kreditlash jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Xususan, kredit mablag‘laridan foydalanish ustidan tizimli va uzluksiz nazorat o‘rnatilishi hisobiga ularning maqsadsiz sarflanishi holatlari kamayadi, moliyaviy intizom mustahkamlanadi hamda muammoli kreditlar ulushi qisqaradi.

4. Hududlar ixtisoslashuviga mos ravishda mikrosanoat markazlari tashkil etish orqali “drayver” loyihalarni shakllantirish. Hududlar ixtisoslashuviga mos ravishda mikrosanoat markazlarini tashkil etish orqali “drayver” loyihalarni shakllantirish istiqbolli yo‘nalishi amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish darajasi sezilarli darajada oshadi. Xususan, har bir viloyat, tuman va shahar kesimida ishlab chiqarish yo‘nalishlarini ixtisoslashtirish asosida kichik sanoat zonalari tashkil etish orqali mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi. Natijada, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklar qisqaradi, bandlik darajasi oshadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda iqtisodiy o‘sishning hududiy diversifikatsiyasi kuchayadi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv mahalliy investitsiya muhitini yaxshilash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotining umumiy raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. “Ijtimoiy karta” platformasi orqali kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanishni monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish. “Ijtimoiy karta” platformasi orqali kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanishni monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish istiqbolli yo‘nalishi amaliyotga joriy etilishi natijasida kredit resurslarining sarflanishi ustidan raqamli, shaffof va uzluksiz nazorat tizimi shakllanadi. Bu esa kredit mablag‘larining belgilangan maqsadga muvofiq ishlatilishini ta’minlash darajasini oshirib, inson omili bilan bog‘liq subyektiv xatoliklar va suiiste’mollik holatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Fikrimizcha, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga ajratilayotgan imtiyozli kredit mablag‘larining samaradorligini oshirish maqsadida “Kambag‘al oilalar reyestri” va boshqa tegishli ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar asosida shakllantiriladigan axborotlarni “Ijtimoiy karta” raqamli platformasi bilan integratsiyalashgan holda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bunda kredit mablag‘larini ajratish, ulardan foydalanish va kreditdan keyingi monitoring jarayonlarini yagona raqamli axborot makonida o‘zaro muvofiqlashtirish orqali kreditlashning manzilliligi va shaffofligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa aholining tadbirkorlik faoliyatini kreditlashni faqat moliyaviy resurslarni ajratish jarayoni sifatida emas, balki ajratilgan mablag‘larning yakuniy ijtimoiy-iqtisodiy natijasini baholashga yo‘naltirilgan kompleks mexanizm sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

6. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va monitoring tizimini avtomatlashtirish. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va monitoring tizimlarini avtomatlashtirish istiqbolli yo‘nalishi amaliyotga tatbiq etilishi natijasida kreditlash va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy modellar kredit risklarini baholash, mijozlarning to‘lov qobiliyatini prognoz qilish hamda muammoli kreditlarni erta aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

8. Tijorat banklarining mas’ul xodimlari uchun sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish. Aholi tadbirkorligini kreditlash samaradorligini oshirish maqsadida tijorat banklari va mas’ul xodimlar faoliyatini faqat ajratilgan kreditlar hajmi yoki soni kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida baholashdan voz kechish kerak. Fikrimizcha, istiqbolda kreditlash natijadorligini baholashda “ajratilgan kredit o‘z vaqtida qaytarildimi va kredit hisobidan tashkil etilgan tadbirkorlik faoliyati barqaror davom etdimi?” degan sifat mezonlari asosida baholanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aholi tadbirkorligini kreditlash tizimini takomillashtirish

iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini ko‘paytirishning muhim omili ekanligi aniqlandi. Kreditlash samaradorligini oshirish uchun kredit ajratish mexanizmlarini soddalashtirish, imtiyozli kreditlar hajmi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, foiz stavkalarini tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlariga moslashtirish hamda garov ta’minotiga muqobil mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, kreditlash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kreditga layoqatlilikni baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kredit resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu asosda, aholi tadbirkorligini kreditlashda manzillilik, moliyaviy qulaylik va samaradorlik tamoyillarini kuchaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, bandlikni ta’minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шумпетер Й. (1974) Основы предпринимательства. Пер. с нем. – М.:Дело, С. 132.
2. Лаврушин О (2016) Деньги, кредит, банки. - Москва: КНОРУС, С 448
3. Мухаммад Ю, Алан Ж (2010) Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, С 307
4. Schumpeter J (1934) The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press,– 255 p.
5. Berkinov B (2018) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot”, 98-101-betlar
6. Alimardonov I (2023) Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent:“Iqtisod-moliya”. 12-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi va Markaziy bankning hisobot ma’lumotlari.
8. https://lex.uz/-O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.